



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI

2023- yil "14" dekabr

BUYRUQ № 87

Toshkent sh.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023- yil 20- noyabrdagi "Davlat xizmatlarini ko'rsatishni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 612-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, **BUYURAMAN**:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023- yil 20- noyabrdagi "Davlat xizmatlarini ko'rsatishni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 612-son qarori (keyingi o'rinlarda – Qaror) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Statistika agentligi markaziy apparati boshqarmalari (bo'linmalari) davlat xizmatlari markazlari va O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (keyingi o'rinlarda – YaIDXP) orqali Statistika agentligiga kelib tushgan murojaatlarni ko'rib chiqish va "Statistika ma'lumotlarini taqdim etish" va "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to'g'risida ma'lumot taqdim etish" bo'yicha ma'lumotlarni (keyingi o'rinlarda – ma'lumotlar) taqdim etish ishlarini Qaror bilan tasdiqlangan Jismoniy va yuridik shaxslarga ma'lumotnomalar berish bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatishning yagona ma'muriy reglamenti va uning sxemasiga (keyingi o'rinlarda – Reglament va Sxema) qat'iy rioya qilgan holda amalga oshirilishini ta'minlasinlar.

3. Quyidagilar:

- Statistika agentligiga davlat xizmatlari markazlari yoki YaIDXP orqali kelib tushgan so'rovnomalarga asosan, "Statistika ma'lumotlarini taqdim etish" bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatish sxemasi 1-ilovaga muvofiq;

- Statistika agentligiga davlat xizmatlari markazlari yoki YaIDXP orqali kelib tushgan so'rovnomalarga asosan, "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri bo'yicha ma'lumot taqdim etish" bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatish sxemasi 2-ilovaga muvofiq;

- mavjud statistika ma'lumotlarining qiymatini hisoblash uchun Statistika agentligining Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ijro intizomi nazorati boshqarmasiga taqdim etiladigan bildirishnomaning namunaviy shakli 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Yig'ma-axborot ishlari boshqarmasi (X. Jurayev), Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish va interaktiv davlat xizmatlari boshqarmasi (Sh. Odilov), Axborot xavfsizligi boshqarmasi (Sh. Djanadilov) Adliya vazirligi hamda Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan birgalikda **joriy yilning 31- dekabriga qadar**:

- tegishli ma'lumotlarni taqdim etish bo'yicha davlat xizmatlarini YaIDXP orqali joriy etilishi yuzasidan amaldagi texnologik yo'riqnomalarga zaruratga ko'ra mos ravishda integratsiyalarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishini ta'minlasinlar;

- davlat xizmatlarini ko'rsatish uchun zarur hujjatlarning namunaviy shakllari va blankalarini tasdiqlash choralari ko'rsinlar.

5. Moliya-iqtisodiyot boshqarmasi (J. Shirinov):

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish va interaktiv davlat xizmatlari boshqarmasi (Sh. Odilov) tegishli vazirlik va idoralar bilan birgalikda davlat xizmatini ko'rsatilganligi uchun to'langan davlat bojlari va yig'imlar summasi hisobini yurituvchi yagona billing tizimi orqali elektron shaklda to'lanishi choralari ko'rsinlar;

elektron shaklda to'langan mablag'larni Statistika agentligining hisob raqamiga belgilangan tartibda to'g'ri kelib tushishini va davlat xizmatlari uchun mablag'larni hisoblab, doimiy monitoring qilishni tashkil etsin;

bazaviy hisoblash miqdori o'zgargan hollarda Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish va interaktiv davlat xizmatlari boshqarmasini (Sh. Odilov) o'rnatilgan tartibda habardor qilsin.

6. Yuridik bo'lim (V. To'xtayev), Statistika ishlarini tashkil etish va metodologiya boshqarmasi (D. Zakirov) **10 kun muddatda** tegishli boshqarmalar bilan birgalikda amaldagi idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi yuzasidan taklif kiritsin.

7. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ijro intizomi nazorati boshqarmasi (G. Salixova):

davlat xizmatlari markazlari va YaIDXP orqali Statistika agentligiga kelib tushadigan "Statistika ma'lumotlarini taqdim etish" bo'yicha murojaatlarni belgilangan tartibda ro'yxatga olish, Reglament va Sxemada hamda davlat xizmatlari bo'yicha pasportlarda belgilangan muddatlarda ko'rib chiqilishi bo'yicha nazorat o'rnatilsin;

ushbu buyruqni Statistika agentligi markaziy apparati boshqarmalari va hududiy statistika organlariga yetkazilishini ta'minlasin.

8. Davlat statistika qo'mitasining 2022-yil 30-sentabrdagi 69-son va 2022-yil 25-noyabrdagi 84-son buyruqlari o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

9. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilish direktor o'rinbosari Z. Ziyayev zimmasiga yuklatilsin.

Direktor



B. Begalov

Statistika agentligi direktorining  
2023- yil 14- dekabrda 87-son  
buyrug'iga  
1-ilova

**Statistika agentligiga davlat xizmatlari markazlari yoki YaIDXP  
orqali kelib tushgan so'rovnomalarga asosan, Statistika ma'lumotlarini  
taqdim etish bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatish  
SXEMASI**

Bosqichlar	Ijrochilar	Tadbirlar	Bajarish muddatlari
1-bosqich	Murojaatchi (yuridik yoki jismoniy shaxs)	Davlat xizmatlari markazlariga bevosita murojaat etadi yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidan (keyingi o'rinlarda – YaIDXP) ro'yxatdan o'tgan holda so'rovnomani to'ldiradi.	O'z xohishiga ko'ra
2-bosqich	YaIDXP	So'rovnoma Statistika agentligiga yuboriladi.	Avtomatik tarzda
3-bosqich	Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ijro intizomi nazorati boshqarmasi	YaIDXP orqali kelib tushgan so'rovnomani belgilangan tartibda ro'yxatga oladi hamda <b>ijroga mas'ul tegishli boshqarmalarga</b> o'rnatilgan tartibda ijroga yo'naltiradi.	2 soat ichida
4-bosqich	Ijroga mas'ul tegishli boshqarmalar (bo'linmalar)	So'rovnomaga ko'ra ma'lumotning <b>mavjudligi</b> hamda <b>har bir birlik ko'rsatkichlar sonini</b> buyruqning 2-ilovasidagi bildirishnomani Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ijro intizomi nazorati boshqarmasiga o'rnatilgan tartibda taqdim qiladi.	1 ish kunidan oshmagan muddatda
5-bosqich	Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ijro intizomi nazorati boshqarmasi	Ma'lumotning <b>mavjudligi</b> hamda <b>har bir birlik ko'rsatkichlar soni</b> to'g'risidagi ma'lumotlarni o'rnatilgan tartibda YaIDXPga joylashtiradi.	2 soat ichida
6-bosqich	Murojaatchi	Statistika agentligi tomonidan hisoblangan summada to'lovni amalga oshiradi.	O'z xohishiga ko'ra
7-bosqich	Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ijro intizomi nazorati boshqarmasi	Murojaatchi tomonidan belgilangan to'lov amalga oshirilgan taqdirda, so'ralgan ma'lumotlarni shakllantirish uchun <b>ijroga mas'ul tegishli boshqarmalarga</b> o'rnatilgan tartibda so'rovnomani qayta ijroga yo'naltiradi hamda ijroga mas'ul boshqarmalar (bo'linmalar) rahbarlarini ogohlantiradi.	2 soat ichida

Bosqichlar	Ijrochilar	Tadbirlar	Bajarish muddatlari
8-bosqich	Ijroga mas'ul boshqarmalar (bo'linmalar)	So'ralgan ma'lumotlarni shakllantiradi va Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ijro intizomi nazorati boshqarmasiga o'rnatilgan tartibda taqdim qiladi.	4 ish kunidan oshmagan muddatda
9-bosqich	Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ijro intizomi nazorati boshqarmasi	Ma'lumotlarni o'rnatilgan tartibda YaIDXPga joylashtiradi.	1 ish kunidan oshmagan muddatda



Statistika agentligi direktorining  
2023- yil 14 - dekabrda gi 84 -son  
buyrug'iga  
2-ilova

**Statistika agentligiga davlat xizmatlari markazlari yoki YaIDXP  
orqali kelib tushgan so'rovnomalarga asosan, Korxonalar va  
tashkilotlarning yagona davlat registri bo'yicha ma'lumot  
taqdim etish bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatish  
SXEMASI**

Bosqichlar	Ijrochilar	Tadbirlar	Bajarish muddatlari
1-bosqich	Murojaatchi ( <i>yuridik yoki jismoniy shaxs</i> )	Davlat xizmatlari markazlariga bevosita murojaat etadi yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidan (keyingi o'rinlarda – YaIDXP) ro'yxatdan o'tgan holda so'rovnomani to'ldiradi.	O'z xohishiga ko'ra
2-bosqich	YaIDXP	So'rovnoma Statistika agentligiga yuboriladi.	Avtomatik tarzda
3-bosqich	Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri axborot tizimi	Ma'lumotning mavjudligi hamda korxonalar sonidan kelib chiqqan holda belgilangan tartibda hisoblangan summada to'lovi to'g'risidagi ma'lumotlarni YaIDXPga yuboriladi.  (Bunda, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish va interaktiv davlat xizmatlari boshqarmasi axborot tizimi ishlash jarayonini monitoring qiladi hamda Statistik registrlarni yuritish va tizimli xizmat ko'rsatish boshqarmasi KTYaDRdagi ma'lumotlarni shakllantirishga mas'ul hisoblanadi.)	Avtomatik tarzda (Axborot tizimi yuklamisaga qarab 10 minutgacha davom etishi mumkin)
4-bosqich	Murojaatchi	Statistika agentligi tomonidan hisoblangan summada to'lovni amalga oshiradi.	O'z xohishiga ko'ra
5-bosqich	Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri axborot tizimi	Murojaatchi tomonidan belgilangan to'lov amalga oshirilgan taqdirda, so'ralgan ma'lumotlarni shakllantirilib csv formatda YaIDXPga yuboriladi.  (Bunda, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish va interaktiv davlat xizmatlari boshqarmasi axborot tizimi ishlash jarayonini monitoring qiladi hamda Statistik registrlarni yuritish va tizimli xizmat ko'rsatish boshqarmasi KTYaDRdagi ma'lumotlarni shakllantirishga mas'ul hisoblanadi.)	Avtomatik tarzda (Axborot tizimi yuklamisaga qarab 3 kungacha davom etishi mumkin)

Statistika agentligi direktorining  
2023- yil 14 - dekabrda 87 -son  
buyrug'iga  
3-ilova

**Jismoniy va yuridik shaxslarning  
murojaatlari bilan ishlash va ijro  
intizomi nazorati boshqarmasiga**

**Statistika agentligiga davlat xizmatlari markazlari (yoki YaIDXP)  
orqali davlat xizmatini ko'rsatish bo'yicha kelib tushgan  
(sana)dagi ( ) - sonli so'rovnoma yuzasidan**

**Bildirishnoma**

<b>№</b>	<b>Mavjud ma'lumotlar</b>	<b>Har bir birlik ko'rsatkichlar soni</b>
1.		
2.		
...		
	<b>Jami ma'lumotlar</b>	

<b>№</b>	<b>Mavjud bo'lmagan ma'lumotlar</b>	<b>Izoh</b>
1.		
2.		
...		

**Ijroga mas'ul tegishli  
boshqarma**

imzo

F.I.SH.